

Buxoro davlat universiteti
rektorining ____-sonli buyrug‘iga
2021-yil ____
1-ilova

**Buxoro davlat universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari va
talablariga rioya etilishini monitoring va nazorat qilish
USLUBIYATI**

I. Umumiy qoidalar

1. Buxoro davlat universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari va talablariga rioya etilishini monitoring va nazorat qilish uslubiyati (keyingi o‘rinlarda “uslubiyat” deb yuritiladi) Buxoro davlat universitetining barcha bo‘limlari, fakultetlari, shuningdek, Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti Qorako‘l akademik litseyi, Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida (keyingi o‘rinlarda “universitet/universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalar” deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi va natijadorligini monitoring va nazorat qilishni amalga oshirish bo‘yicha tartib va chora-tadbirlarni belgilab beradi.

2. Mazkur Uslubiyatda monitoring deyilganda universitet tizimi faoliyatida korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini amal qilishi samaradorligini baholash maqsadida joriy holatni tahlil qilish tushuniladi.

3. Mazkur Uslubiyatda nazorat deyilganda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini, shu jumladan, universitet tizimi xodimlari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarayotganda korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va tartib-taomillariga haqiqatda amal qilinayotganini o‘rganish maqsadida tekshirish ishlarini o‘tkazish yo‘li bilan nazorat qilish va baholash tushuniladi.

4. Universitet, uning hududiy boshqarmalari hamda tasarrufidagi markazlar va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini monitoring va nazorat qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

a) universitet tizimi faoliyatini antikorrupsion qonunchilikka hamda qabul qilingan antikorrupsion talablarga muvofiqligini tekshirish;

b) universitet tizimida amalga oshirilayotgan antikorrupsion chora-tadbirlarni hamda tatbiq etilgan antikorrupsion tartib-taomillarning yetarliligi va samaradorligini baholash;

v) universitet tizimi faoliyatida korrupsion xavf-xatarlar indikatorlarini aniqlash;

g) korruptsion hatti-harakatlarni amalga oshirilishini oldini olish maqsadida universitet, uning hududiy boshqarmalari hamda tasarrufidagi markazlar va muassasalarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish;

d) ilgari o‘tkazilgan monitoring va nazorat, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari va boshqa nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha berilgan, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari dasturida tasdiqlangan tavsiyalarning universitet tizimida joriy etilishini nazorat qilish.

5. Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari va talablariga rioya etilishini monitoring qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim rektorligining Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda “Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi” deb yuritiladi) shuningdek, universitetning hududiy boshqarmalari hamda tasarrufidagi markazlar va muassasalarda uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinatorlar / mas’ul xodimlar javobgardir.

6. Korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan funktсия va vazifalarni bajaruvchi universitet tizimining tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari mazkur Uslubiyatga muvofiq universitetning Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga (yoki universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalardagi korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mas’ul xodimlariga) monitoring va nazorat doirasida so‘raladigan hisobotlar, ma’lumotlar, hujjatlar va sharhlarni o‘z vaqtida taqdim etish uchun javobgardir.

II. Monitoring va nazorat o‘tkazish yo‘nalishlari va tadbirlari

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha monitoring va nazorat universitet tizimida qabul qilingan ichki hujjatlar asosida o‘tkaziladi, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida universitet tizimida amalga oshiriladigan jarayonlar va tadbirlar umumiy holda universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashqil qiladi (keyingi o‘rinlarda “korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi” deb yuritiladi).

8. Universitet tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha monitoring qilinadi:

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va hukumat idoralarining tavsiyalarini, shuningdek, universitet tizimi faoliyatida qo‘llaniladigan tegishli xalqaro qonunchilik talablarini monitoring qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish va uni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro va xorijiy tashkilotlarning tavsiyalarini monitoring qilish;

universitet tizimi, shu jumladan uning xodimlarini korruption hatti-harakatlarni amalga oshirganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning mavjudligi, shuningdek, universitet tizimi kontragentlari haqida shunga o‘xshash ma’lumotlarning mavjudligi borasida ommaviy axborot vositalarini monitoring qilish;

universitet tizimi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tprinsiplari va talablari to‘g‘risida xabardorligini tekshirish.

9. Universitet tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha nazorat qilinadi:

universitet tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi / yo‘l xaritasining to‘liq va samarali bajarilishini nazorat qilish;

universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘rnatilgan talablar hamda tartib-taomillarga rioya etilishini (tanlov asosida) tekshirish (komplaens-tekshiruvlar);

antikorruption tizimning ichki auditni, shu jumladan universitet tizimida o‘rnatilgan talablar va tartiblarga rioya etilishini nazorat qilish;

ichki auditning tegishli standartlari va metodologiyasiga muvofiq ichki audit vazifalari yuklangan bo‘linmalar tomonidan amalga oshiriladigan universitet tizimi ichki xujjatlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2016 standartlariga muvofiqligi bo‘yicha ichki audit tekshiruvini o‘tkazish.

III. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring qilish tartibi

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va hukumat organlarining tavsiyalarini, shuningdek, universitet tizimi faoliyatida qo‘llaniladigan tegishli xalqaro qonunchilik xujjatlarini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi har oyda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar, O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi (keyingi o‘rinlarda “Milliy kengash”)ning qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining buyruqlari, shuningdek, amaldagi xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari yuzasidan monitoring o‘tkazadi.

Zarurat bo‘lganida, Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi monitoring natijalariga ko‘ra, universitet tizimi ichki hujjatlariga o‘zgartirishlar yoki qo‘srimchalar kiritish yoki yangi ichki hujjatlar va antikorrupsion chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi va ularni ko‘rib chiqish uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim rektoriga taqdim etadi. Ushbu takliflar rektor tomonidan ma’qullanganidan so‘ng, Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ichki xujjatlarga o‘zgartirish yoki qo‘srimchalar kiritish yoki antikorrupsion choralarни joriy etish zarurligi to‘g‘risida universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalarни xabardor qiladi, belgilangan topshiriqlarni bajarish muddatlarini belgilaydi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

b) o‘tkazilgan monitoring va uning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish aniqlanganda yoki o‘zgartirishlar universitet tizimining ichki hujjatlari va antikorrupsion tartib-taomillariga tuzatishlar kiritish zaruratini keltirib chiqarmagan hollarda 1-ilovada keltirilgan shakl bo‘yicha jurnalga kiritiladi;

v) universitetning hududiy boshqarmalari, tasarrufidagi markazlar va muassasalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinatorlari / mas’ul shaxslari qonunchilik hujjatlari monitoringini o‘z tashabbuslariga asosan o‘tkazganda, ular korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tegishli takliflarni Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bilan kelishadilar, shuningdek ushbu takliflarni 1-ilovaga muvofiq shaklda jurnalda aks ettiradilar va uni monitoring natijalarini umumiy shaklda birlashtirish uchun Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yuboradilar.

11. Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish va yuritish masalalari bo‘yicha xalqaro va xorijiy tashkilotlarning tavsiyalarini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi har yarim yilda bir marta xalqaro tashkilotlarning (IHTT, BMT NJB, YeOG, ShHT, YeXHT) korrupsiyaga

qarshi kurashish sohasida samarali tizimni yaratish va joriy etish masalasi bo‘yicha tavsiyalarini, shuningdek, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Organization for Standardization, ISO) tomonidan chiqarilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha standartlar monitoringini amalga oshiradi. Shuningdek, Transperensi-Interneshnnal (Transparency International) xalqaro tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish va tashkilotlar faoliyatining shaffofligini ta’minlash masalalari bo‘yicha tavsiyalari ham tahlil qilinishi mumkin;

b) monitoring natijalariga ko‘ra va ob’ektiv zarurat bo‘lgan holatda Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi Universitet tizimi ichki hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar yoki qo‘srimchalar kiritish yoki yangi ichki hujjatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi va ularni ko‘rib chiqish uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim rektoriga taqdim etadi. Ushbu takliflar Rektor tomonidan ma’qullanganidan so‘ng, Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ichki xujjalarga o‘zgartirish yoki qo‘srimchalar kiritish yoki yangi ichki hujjatlar va korrupsiyaga qarshi choralarini joriy etish zarurligi to‘g‘risida Universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalarni xabardor qiladi, belgilangan topshiriqlarning bajarilish muddatlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

v) o‘tkazilgan monitoring va uning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek xalqaro va xorijiy tashkilotlarning tavsiyalarida hech qanday o‘zgartirish va qo‘srimchalar aniqlanmagan taqdirda yoxud mazkur o‘zgarishlar universitet tizimining ichki hujjatlari va antikorrupsion tartib-taomillarga tuzatishlar kiritish zaruratini keltirib chiqarmagan holatlarda 1-ilovada keltirilgan shakl bo‘yicha jurnalga kiritiladi.

12. Ommaviy axborot vositalari monitoringi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) universitetning matbuot xizmati (ham milliy, ham xorijiy) ommaviy axborot vositalari, shu jumladan jurnallar, gazetalar, Internet tarmoqlari va boshqa ommaviy axborot vositalaridagi maqolalarni o‘rgangan holda, ularda universitet tizimi va/yoki uning xodimlarini noqonuniy hatti-harakatlari, shu jumladan korrupsiya harakatlariga aloqadorligi to‘g‘risida ma’lumotlar (keyingi o‘rinlarda “relevant ma’lumot” deb yuritiladi) mavjudligi borasida muntazam monitoring olib boradi;

b) universitetning matbuot xizmati tomonidan aniqlangan relevant ma’lumotlar to‘g‘risida Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga kechiktirmay xabar beriladi;

v) Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i relevant ma’lumot to‘g‘risida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim rektoriga yoki tegishli hududiy boshqarma / tasarrufidagi markaz yoki muassasa rahbariga xabar beradi hamda universitet tizimi xodimlarini korruptsion hatti-harakatlarni amalga oshirganligi yoxud odob-axloq qoidalarini buzganligi bo‘yicha xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish reglamentiga muvofiq tekshiruv o‘tkazish tashabbusini ilgari suradi va/yoki aniqlangan ma’lumotlarni universitet tizimi faoliyatiga salbiy ta’sirini minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar, shu jumladan universitet tizimining ishchanlik obro‘sini himoya qilish bo‘yicha tegishli tadbirlar belgilaydi;

g) Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ommaviy axborot vositalarida relevant ma’lumotlar mavjudligini tasqdilovchi dalillarni 1-ilovada keltirilgan shakl bo‘yicha jurnalda aks ettiradi.

d) Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinator / mas’ul shaxslar ommaviy axborot vositalarini mustaqil ravishda monitoring qilishi mumkin. Bunda, relevant ma’lumotlar aniqlangan taqdirda, mazkur bandning “b”, “v”, va “g” kichik bandlarida ko‘rsatilgan harakatlar bajariladi.

13. Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinator / mas’ul shaxslar bilan birgalikda yarim yilda bir marotaba universitet tizimi xodimlarini asosiy antikorruption prinsiplar va talablar to‘g‘risidagi xabardorligini tekshirishni 2-ilovada ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni bajarish yo‘li bilan amalga oshiradilar. Universitetning hududiy boshqarmalari, uning tasarrufidagi markazlar va muassasalarda o‘tkazilgan so‘rovnomalardan olingan natijalar Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga umumlashtirish va tahlil qilish, yangi ichki hujjatlar va korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish, yoki xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy prinsiplar va talablar to‘g‘risida xabardorligini oshirish uchun qo‘srimcha tadbirlarni o‘tkazish maqsadida, shuningdek kelgusida universitet tizimining ichki hujjatlariga o‘zgartirishlar yoki qo‘srimchalar kiritish uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinator / mas’ul shaxslar tomonidan yuboriladi.

IV. Universitet tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi (Yo‘l xaritasi)ning to‘liq va samarali bajarilishini nazorat qilish

14. Universitet tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi (Yo‘l xaritasi) bandlarining to‘liq bajarilishini nazorat qilish har chorakda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risida hisobot tuzish jarayonida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim rektorligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risida hisobot tuzish va taqdim etish reglamentiga muvofiq amalga oshiriladi.

V. Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘rnatilgan talablar va tartib-taomillarga rioxaya etilishini nazorat (komplaens-nazorat) qilish tartibi

15. Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘rnatilgan talablar va tartib-taomillarga rioxaya etilishini nazorat qilish (komplaens-tekshiruvlar) Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi va Universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalardagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

16. Universitet tizimida antikorruption tartib-taomillariga rioxaya etish ustidan mutnazam nazorat korruption xavf-xatari yuqori bo‘lgan funktsiyalar va jarayonlarga, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha nazoratni o‘z ichiga olgan funktsiyalar va tartib-taomillarga nisbatan amalga oshiriladi.

17. Korruption xavf-xatari yuqori bo‘lgan funktsiyalar va jarayonlar ro‘yxati har yili Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan universitet, uning hududiy boshqarmalari hamda tasarrufidagi markazlar va muassasalarda korruption xavf-xatarlarni baholash (qayta baholash) natijalari asosida universitet tizimining korruption xavf-xatarlar xaritalariga muvofiq shakllantiriladi. Nazorat qilish uchun tuzilgan ro‘yxatga

korruption xavfi yuqori bo‘lgan funktsiyalarni hamda korruption xavf-xatari yuqori va o‘rtacha qoldiqli jarayonlarni, shuningdek ularga mos ravishda antikorruption nazoratni o‘z ichiga oluvchi vazifalar va tartib-taomillarni kiritish mumkin.

18. Yuqori qoldiqli korrupsiya xavfiga ega bo‘lgan vazifalar va tartib-taomillar va ularga mos ravishda korrupsiya qarshi kurashish nazoratini o‘z ichiga olgan vazifalar va tartib-taomillarni nazorat qilish yiliga bir marta amalga oshirilishi kerak.

19. O‘rtacha qoldiqli korrupsiya xavfiga ega bo‘lgan vazifalar va tartib-taomillar va ularga mos ravishda korrupsiya qarshi kurashish nazoratini o‘z ichiga olgan vazifalar va tartib-taomillarni nazorat qilish ikki yilda bir marta amalga oshirilishi kerak.

20. Universitet va uning hududiy boshqarmalari bo‘yicha komplaens-tekshiruvni rejalashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

har yili, 15 yanvargacha Komplaens nazorat va korrupsiya qarshi kurashish bo‘limi universitet va uning hududiy boshqarmalari uchun komplaens-tekshiruv rejasini ishlab chiqadi;

reja ikki kalendar yili uchun tuziladi;

reja rektor tomonidan 31 yanvargacha ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak.

21. Universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalar bo‘yicha komplaens-tekshiruvni rejalashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

har yili 15 yanvarga qadar korrupsiya qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlar universitet tasarrufidagi tegishli markazlar va muassasalar uchun komplaens-tekshiruv rejasini ishlab chiqadi;

reja ikki kalendar yili uchun tuziladi;

reja Komplaens nazorat va korrupsiya qarshi kurashish bo‘limi, shuningdek, universitet tasarrufidagi tegishli markaz yoki muassasa rahbari tomonidan 31 yanvargacha ko‘rib chiqilishi va ma’qullanishi kerak.

22. Universitet, uning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalarning komplaens-tekshiruv rejalarida quyidagilar aks etishi kerak:

a) tekshiruv sohasi (yo‘nalishi) va ob’ektlari – tahlil qilinadigan funktsiyalar / faoliyat yo‘nalishlari ro‘yxati;

b) tekshirish predmeti – universitet tizimi ichki xujjatlarini amal qilinayotganligi tekshiriladi;

v) tekshiriladigan davr;

g) tekshiruv turi (to‘liq yoki tanlanma);

d) tekshirish usuli (masalan, tekshirilayotgan funktsiyani bajarish uchun mas’ul xodim bilan suhbat, hujjatlarni tekshirish, so‘rovnoma o‘tkazish va h.k.).

23. Universitet tizimida rejadan tashqari komplaens-tekshiruvlar quyidagi hollarda o‘tkazilishi mumkin:

Rektorning tegishli qarori bo‘lsa;

Universitet tasarrufidagi tegishli markaz yoki muassasa rahbarining qarori bo‘lsa;

Universitet tizimidagi boshqa tekshiruvlarni (shu jumladan ichki tekshiruvlar, ichki audit tekshiruvi va boshqalar) o‘tkazish jarayonida korrupsiya xavflari aniqlanganda; universitet tizimidagi aloqa kanallaridan biriga korrupsiya harakatlari yoki manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida tegishli xabar kelib tushganida.

24. Komplaens nazorat va korrupsiya qarshi kurashish bo‘limi va korrupsiya qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlar komplaens-tekshiruvni amalga oshirish uchun

operatsiyalar bo‘yicha tanlab olingan namunalar ro‘yxatini shakllantiradi, bunda taqdim etiladigan buxgalteriya hisobi ma’lumotlari yoki tahliliy ma’lumotlar / hisobotlardan ham foydalaniladi.

25. Operatsiyalar bo‘yicha tanlab olingan namunalar ro‘yxatini tuzish maqsadida Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlar universitet tizimining mas’ul xodimlaridan / tarkibiy bo‘linmalaridan amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni so‘rash huquqiga ega.

26. Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga nazorat tadbirlarini amalga oshirish maqsadida o‘qish rejimida universitet va uning hududiy boshqarmalarining buxgalteriya tizimiga doimiy kirish huquqi va / yoki ma’lumotlarni yuklab olish (o‘zgartirish / ma’lumotlar kiritish huquqisiz) imkoniyati taqdim etiladi, universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlarga esa, universitet tasarrufidagi tegishli markazlar va muassasalarning buxgalteriya tizimlariga o‘qish rejimida doimiy kirish huquqi va / yoki ma’lumotlarni yuklab olish (o‘zgartirish / ma’lumotlar kiritish huquqisiz) imkoniyati taqdim etiladi.

27. Namunalar ro‘yxatini shakllantirishda quyidagilar hisobga olinadi:

operatsiyalar soni va summasi (miqdori), shu jumladan katta miqdordagi summalar, yoki qonun hujjatlarida yoki universitet tizimining ichki hujjatlarida belgilangan limitlarga yaqin summalar va boshqalar;

kontragentning xavf darajasi (universitet tizimida yuritiladigan kontragentlarni tekshirish reestri hamda nohalol kontragentlar reestri asosida);

buxgalteriya xujjatlarida / reestrlerda operatsiyalarning tavsifi bayon etilmaganligi yoki batafsil yozuvlarning mavjud emasligi,, buxgalteriya hisobvaraqlariga mos bo‘lmagan hisob-kitoblar, ish kuni bo‘lmagan yoki ish vaqtini bo‘lmagan vaqtarda operatsiyalarni amalga oshirish, universitet tizimining ichki hujjatlarida bayon etilgan tartibdan chetga chiqish, kontragentni raqobatsiz tanlab olish va shu kabi boshqa xavf omillari.

28. Namunalar ro‘yxatini shakllantirish natijalariga ko‘ra, Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi hamda universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalardagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlar javobgar tarkibiy bo‘linmalardan amalga oshirilgan operatsiyalar / o‘tkazilgan tadbirlar to‘g‘risidagi hujjatlar va ma’lumotlarni talab qiladi va ular bu ma’lumotlarni 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

29. Mazkur Uslubiyatning 28-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar va ma’lumotlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

shartnomalar;

tovarlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari (yuk xatlari) yoki xizmatlar ko‘rsatish / ishlarni bajarish dalolatnomalari;

xizmatlar ko‘rsatilganligini / ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi axborot materiallari (foto va video hisobotlar, bosma namunalar va haqiqatdan xizmatlar ko‘rsatilganligini / ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi boshqa ma’lumotlar);

kontragent va universitet tizimi vakili bo‘lgan shaxsning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar;

universitet tizimi xodimlari va/yoki kontragentlar tomonidan yuborilgan arizalar, murojaatlar, yozishmalar;

kontragentning tekshuv natijalari bo'yicha xulosalar;

ichki kelishuv tartib-taomillariga rioya qilinganlikni tasdiqlovchi hujjatlar;

Ma'lumotlarni universitet tizimining ichki hujjatlariga muvofiq nashr etilganligini tasdiqlovchi, ochiq manbalar havolalari va skrinshotlari;

komplaens-tekshiruvni o'tkazish uchun mas'ul xodimga kerak bo'lgan yozma, raqamli yoki og'zaki shakldagi boshqa ma'lumotlar.

30. Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodimlar zaruriy ma'lumotlarni olgandan so'ng, 15 ish kunidan oshmagan muddatda tanlangan operatsiyalar / o'tkazilgan chora-tadbirlar, tegishli funktsiyalar va tartib-taomillar yuzasidan ularni ichki xujjatlar talablariga, shu jumladan antikorrupsion prinsiplar, talablar va tartib-taomillarga muvofiq amalga oshirilgani bo'yicha ko'rib chiqadi, shuningdek, universitet tizimi xodimlarining xatti-harakatlarining qonuniyligini va ularning antikorrupsion prinsiplar va talablar nuqtai nazaridan maqbulligini tahlil qiladi.

31. Tekshirish birinchi navbatda korruption hatti-harakatlar indikatorlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi zarur va uning doirasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

universitet tizimi idoralari va muassasalari tomonidan tuzilgan shartnomalardagi ma'lumotlarni tovarlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari yoki xizmatlar ko'rsatish / ishlarni bajarish dalolatnomalari bilan solishtirish;

tovarlarning haqiqatda sotib olinishi va foydalanilishi haqidagi yoki xizmatlar ko'rsatilishi / ishlarning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni, ularning tegishli shartnoma va dalolatnomalarda ko'rsatilgan miqdori va sifati bilan solishtirish;

kontragentni tekshirish natijalari xulosada to'liq aks etishini yoki universitet tizimida ishlashga da'vogarlik qilayotgan shaxs haqidagi tegishli hujjatlardagi ma'lumotlarni to'liq bo'lishini ta'minlash, bunda ma'lumotlarni asl hujjatlar bilan solishtirish (skrinshotlar, ko'chirmalar, xatlar va boshqalar) zarur;

kontragent va universitet tizimi tomonidan shartnoma / boshqa ma'muriy hujjatlarni imzolagan shaxslarning, shuningdek universitet tizimi tomonidan tasdiqlagan shaxslarning vakolatlari borligini tekshirish, taqdim etilgan hujjatlarni vakolatli shaxslarning imzolarining bir-biriga mosligi bo'yicha solishtirish;

kontragent rekvizitlarini va tegishli shartnomada ko'rsatilgan summani buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirish;

universitet tizimi xodimlari yoki kontragent tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tuzatish, o'chirish, qalbakilashtirish belgilari mavjudligi bo'yicha tekshirish;

qonunchilikka va universitet tizimining ichki hujjatlariga muvofiq kerakli ma'lumotlarni ochiq axborot manbalarida nashr etilganligini tekshirish (raqobatli xarid jarayonlarining e'lon qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar);

paydo bo'lgan muammolar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish va sharhlar olish uchun universitet tizimi xodimlaridan intervyu olish;

haqiqiy biznes maqsadining mavjudligini, yetkazib beruvchining xizmatlari / ishlarini narxlarining asoslilagini, operatsiyalarning shaffofligini va universitet tizimi xodimlarining lozim darajadagi ehtiyyotkorlik prinsipiga rioya etishini tahlil qilish.

32. Operatsiyalarni tahlil qilish jarayonida Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlar universitet tizimining tarkibiy bo‘linmalaridan zarur hujjatlar, tushuntirishlar va statistik ma’lumotlarni so‘rash va olish, shuningdek, tekshirish jarayoniga yordam berish uchun universitet tizimining har qanday mutaxassisini jalg qilish huquqiga ega.

33. Komplaens-tekshiruvni o‘tkazayotgan Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlar, hujjatlarning kerakli tartibda rasmiylashtirishini va tekshiruvning har bir bosqichida yuritilishini, jumladan quyidagi ishchi hujjatlarning tuzilishini ta’minlaydilar: tekshiruvlar doirasida bajarilgan ishlar va tekshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek, monitoring va nazoratni amalga oshirish jarayonida muvofiqligi tekshirilgan ichki xujjatlarning nomlari;

buzilgan yoki nazorat qilish tartib-taomillarida kamchiliklar aniqlangan universitet tizimining ichki hujjatlariga havola ko‘rsatilgan aniqlangan buzilishlar / kuzatuvarlar; qilingan xulosalar / tekshirish natijalarini tasdiqlovchi fayllar / hujjatlar (talab qilingan hujjatlarning nusxalari / skaner qilingan variantlari).

34. Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlar komplaens-tekshiruv natijalari bo‘yicha kirish, tavsiflovchi va yakunlovchi qismlarni o‘z ichiga oladigan hisobot (keyingi o‘rinlarda “Hisobot” deb yuritiladi) tuzadilar va ularda odatda quyidagilar ko‘rsatiladi:

Kirish qismida:

har bir vazifa va tartib-tamoilga nisbatan o‘tkazilgan komplaens-tekshiruvning boshlanish va tugash sanalari;

komplaens-tekshiruv o‘tkazilgan vazifalar va tartib-tamoillar ro‘yxati;

komplaens-tekshiruv o‘tkazilgan vazifalar va tartib-tamoillarni bajarishga mas’ul bo‘lgan bo‘limlar va shaxslar ro‘yxati;

hisobotni tuzish uchun mas’ul bo‘lgan xodimning to‘liq ism-sharifi.

Tavsiflovchi qismda:

komplaens-tekshiruv o‘tkazilgan har bir vazifa va tartib-tamoil bo‘yicha tanlanma tekshiruv uchun namunalar olish uslubiyati va olinadigan namunalarning hajmi;

Universitet / uning hududiy boshqarmasi / uning tasarrufidagi markaz yoki muassasaning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida aniqlangan buzilishlar va/yoki kamchiliklar (universitet tizimining ichki hujjatlariga havolalar bilan), shu jumladan kamchiliklarning kelib chiqishi / rivojlanishiga olib kelgan sabablar va shartlar.

Yakuniy qismda:

komplaens-tekshiruv o‘tkazilgan har bir funksiya va tartib-taomilda korrupsiya xavfining mavjudligi yoki yo‘qligi to‘g‘risida xulosa;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda universitet tizimining ichki hujjatlari normalarini buzilish holatlari ko‘rsatilgan asosiy qonunbazarliklar;

komplaens-tekshiruv davomida aniqlangan qonunbazarliklarni / kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar o‘z ichiga tadbirlarning nomlanishi, kamchiliklarni bartaraf etish / berilgan tavsiyalarni tashkil qilish va joriy etish uchun mas’ul shaxslar hamda ularni bajarish muddatlarini oladi;

35. Hisobotga kiritiladigan ma’lumotlarga (agar imkoniyat bo‘lsa) tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari, havolalari hamda buxgalteriya hisobi tizimidan yoki universitet

tizimining boshqa axborot manbalaridan (ochiq axborot manbalaridan) yuklamalar (ko‘chirmalar) ilova qilinishi kerak.

36. Universitet va hududiy boshqarmalarda o‘tkazilgan komplaens-tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi hisobotlar Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘iga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

37. Universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalarining komplaens-tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi hisobotlari Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etiladi, zarurat tug‘ilganida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlardan izoh berish va aniqliklar kiritish orqali hisobotga tegishli tuzatishlarni kiritish so‘ralishi mumkin.

38. Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i tomonidan hisobot ma’qullangandan keyin 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay, agar izoh berish zarurati tug‘ilsa, 3 (uch) ish kunidan oshmagan muddat ichida hisobot (tegishli bo‘linmaga oid bo‘lgan qismi bo‘yicha) nazorat tadbirlari o‘tkazilgan bo‘linma rahbariyatiga tanishib chiqish uchun taqdim etilishi lozim.

Nazorat tadbirlari o‘tkazilgan bo‘linma rahbariyatidan tomonidan izohlar mavjud bo‘lganda hamda shu borada tegishli asoslar bo‘lganda hisobotga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

39. Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i / universitet tasarrufidagi tegishli markaz yoki muassasadagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimi komplaens-tekshiruv o‘tkazilgan bo‘linma boshlig‘idan izohlar olgan kundan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay (izohlar mavjud bo‘lmagan holatda esa, bunday izohlar olinishi kerak bo‘lgan kundan boshlab) yakuniy hisobotni imzolaydi va uni rektorga / universitet tasarrufidagi tegishli markaz yoki muassasa rahbariyatiga taqdim etadi.

Shu kuni Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi /universitet tasarrufidagi tegishli markaz yoki muassasadagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimi o‘tkazilgan komplaens-tekshiruv to‘g‘risidagi ma’lumotlarni mazkur Uslubiyatning 1-ilovasiga muvofiq shaklda jurnalga kiritadi.

VI. Ichki audit vazifalarini bajaruvchi bo‘linmalar tomonidan universitet tizimining ichki xujjatlari talablariga amal qilinishini nazorat qilish tartibi

40. Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi hamda universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalarning ichki audit va nazorat vazifalari yuklatilgan bo‘linmalar antikorrupsion tizim doirasida ichki audit tekshiruvini muntazam ravishda o‘tkazib borishlari shart. Shu maqsadda mazkur bo‘limdagi hamda VII bo‘limdagi keltirilgan metodologiya va tartib-taomillardan foydalanish mumkin.

41. Yuqori va o‘rta qoldiqli korrupsiya xavfi mavjud bo‘lgan funktsiyalar va jarayonlar bo‘yicha nazorat tadbirlarini amalga oshirayotganda, Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi hamda universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalardagi ichki audit va nazorat funktsiyalarini yuklatilgan bo‘linmalar tekshiruv rejasiga universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki xujjatlari talablariga amal qilinishi masalasini kiritishlari zarur.

Bunda nazorat tadbirlari universitet tizimida ichki audit vazifalari yuklatilgan bo‘linmalarning ichki tartib-taomillariga va metodologiyasiga muvofiq ravishda, tekshiruv uchun namunalarni tanlab olish, korruption hatti-harakatlar indikatorlarini aniqlash va mazkur uslubiyatning V bo‘limida bayon etilgan tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

42. Universitet, uning tasarrufidagi markaz yoki muassasadagi korrupsiya qarshi kurashish tizimida nomuvofiqliklar yoki kamchiliklar yoxud o‘zgartirishlar kiritish zarurati tug‘ilsa, Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi va universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalardagi ichki audit vazifasi yuklatilgan bo‘linma tomonidan tegishli takliflar 1-ilovada keltirilgan shaklga muvofiq jurnalga qayd etiladi, shuningdek uni quyidagilarga yuboradi:

a) agar nomuvofiqliklar universitet va uning hududiy boshqarmalari bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruvlar doirasida aniqlangan bo‘lsa, Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi tomonidan Komplaens nazorat va korrupsiya qarshi kurashish bo‘limiga; yoki

b) agar nomuvofiqliklar universitet tasarrufidagi markaz yoki muassasada ichki audit vazifalarini bajaruvchi bo‘linma tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlar doirasida aniqlangan bo‘lsa, universitet tasarrufidagi markaz yoki muassasada korrupsiya qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimga yuboriladi.

U esa ichki audit vazifalari yuklatilgan bo‘linma xodimi bilan shaklni tahlil qilib, muhokama qilganidan so‘ng uni Komplaens nazorat va korrupsiya qarshi kurashish bo‘limiga taqdim etadi.

Komplaens nazorat va korrupsiya qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i tekshiruv natijalari va korrupsiya qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni, tegishli materiallar kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kunidan oshmagan muddatda ko‘rib chiqishi va zarurat bo‘lganda uni Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi yoki universitet tasarrufidagi markaz yoki muassasadagi ichki audit vazifalarini bajaruvchi tegishli bo‘linma bilan muhokama qilishi zarur hamda rektorga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi..

Rektor tomonidan mazkur takliflar tasdiqlaganidan so‘ng, Komplaens nazorat va korrupsiya qarshi kurashish bo‘limi ichki xujjalarga o‘zgartirish yoki qo‘srimchalar kiritish yoki yangi ichki hujjatlar va antikorrupsion chora-tadbirlarni joriy etish zarurati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalarga yetkazadi, shuningdek ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish muddatlarini belgilaydi va ularning ijrosini Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi yoki universitet tasarrufidagi tegishli markaz yoki muassasada ichki audit vazifalari yuklatilgan bo‘linma bilan birgalikda nazorat qiladi.

VII. Korrupsiya qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2016 standartiga muvofiqligi bo‘yicha ichki audit tekshiruvi o‘tkazish tartibi

43. Korrupsiya qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2016 standartiga muvofiqligi bo‘yicha ichki audit universitetda, uning hududiy boshqarmalarida va universitet tasarrufidagi markaz va muassasalarda rektor va/yoki universitet tasarrufidagi

tegishli markazlar va muassasalar rahbarlarining qarori bo'yicha yilda bir marta o'tkaziladi.

44. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2016 standartiga muvofiqligi bo'yicha ichki audit o'tkazish quyidagi tartibda o'tkaziladi:

a) Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi yoki universitet tasarrufidagi markaz yoki muassasada ichki audit vazifalari yuklatilgan bo'linmalar korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyatidagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha mazkur Uslubiyatning 3-ilovasiga muvofiq shaklda tuzilgan mezonlar ro'yxatiga muvofiq audit tekshiruvini o'tkazadilar;

b) o'tkazilgan ichki audit tekshiruvi natijalariga ko'ra, Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalardagi xuddi shunday bo'linmalardan olingan ma'lumotlarni umumlashtiradi va tahlil qiladi hamda universitet, uning hududiy boshqarmalari va uning tasarrufidagi markazlar va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'rigan chora-tadbirlarning yetarlilagini baholaydi;

v) universitet, uning tasarrufidagi markaz yoki muassasalarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida nomuvofiqlik va kamchiliklar aniqlanib, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish zarurati tug'ilsa Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi tegishli takliflarni 1-ilovada keltirilgan shaklga muvofiq jurnalga qayd etadi va uni Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga taqdim etadi;

g) baholash natijalari Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i bilan muhokama qilganidan so'ng, Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi boshlig'i baholash natijalarini va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflarni rektorga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi. Rektor ularni tasdiqlaganidan so'ng, Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi ichki xujjatlarga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish yoki yangi ichki hujjatlarni va antikorrupsion chora-tadbirlarni qo'llash, unda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish muddatlarini belgilash va ularning ijrosini nazorat qilish bo'yicha universitet tasarrufidagi markazlar va muassasalarga ma'lumot beradi.

VIII. Yakuniy qoidalar

45. Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan monitoring va nazorat yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlarining asosiy natijalari universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amaldagi holati to'g'risidagi hisobotlarni tuzishda foydalilanildi.

